

Varshava universiteti bilan hamkorlikda Arxeologik tahlil laboratoriyasi tashkil etiladi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov boshchiligidagi olimlar jamoasi – Milliy arxeologiya markazi direktori Farhod Maqsudov, bo'lim boshliqlari Durdona Murodova va Malika To'xtayevalar Polshadagi Varshava universiteti Arxeologiya fakulteti taklifiga binoan Varshavada xizmat safarida bo'ldilar.

Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazida Varshava universiteti bilan hamkorlikda Arxeologik tahlil laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha ikki tomonlama shartnoma imzolandi.





Mazkur tashabbus ERC Consolidator granti doirasida amalga oshirilayotgan INASIA - "Ular zamonaviy odamlar bo'lganmi? G'arbiy Markaziy Osiyoda yuqori paleolit muammosi" nomli loyiha asosida olib borilmoqda. Loyiha Varshava universiteti Arxeologiya fakultetida professori Małgorzata Kot rahbarligida amalga oshirilmoqda.

Varshava universiteti Arxeologiya fakulteti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi o'rtasidagi ko'p yillik hamkorlik samarasi sifatida olimlarimiz ushbu yangi laboratoriya uchun tayyorlab berilgan maxsus xonalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Laboratoriyaning jihozlanishi va zarur uskunalar bilan ta'minlanishi loyiha byudjeti doirasida ajratilgan grant mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Laboratoriyaning tashkil etilishi nafaqat loyiha doirasidagi rejalarni amalga oshirishga xizmat qiladi, balki uzoq muddatli, chuqurlashtirilgan hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratadi.